

Alisher Navoiy tavalludining 579 yilligi nishonlanmoqda

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Respublika Yozuvchilar uyushmasi hamda O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi bilan hamkorlikda Alisher Navoiy tavalludining 579 yilligi munosabati bilan buyuk mutafakkir ilmiy merosini o'rganish masalalariga bag'ishlangan ilmiy anjuman o'tkazildi. Unda yetakchi navoiyshunos olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi.



Anjumanda o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi Alisher Navoiyning mumtoz adabiyotning adabiy-ma'rifiy jihatdan yuksalishidagi o'rni va o'zbek tilshunosligi ravnaqiga qo'shgan beqiyos hissi, shuningdek, shoirning hayot yo'li, ijodi va asarlarining nashri xususidagi dolzarb masalalar bo'yicha so'z yuritildi. Anjumanda 20 ga yaqin ma'ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.